

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABBOZOV OXUNJON QAYUMJONOVICH

SO‘X TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

UO‘K: 811.512.133’373.21

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Abbozov Oxunjon Qayumjonovich

So‘x tumani toponimlarining leksik-semantik tadqiqi 5

Abbozov Okhunjon Khayumjonovich

Lexical-semantic study of toponyms of Sokh district..... 26

Аббозов Охунжон Каюмжонович

Лексико-семантическое исследование топонимов Сохского района 46

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 51

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABBOZOV OXUNJON QAYUMJONOVICH

SO‘X TUMANI TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil.2364 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti tishunoslik kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezюме)) Farg'ona davlat universiteti veb-sahifasi www.adu.uz hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali www.ziyo.net manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamajonov Alijon Boboyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Turobov Abdurayim Malikovich,
filologiya fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «23» may soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Telefon: (99873) 244-71-28)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (254 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Telefon: (99873) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «03» may kuni tarqatildi.

(2023-yil «03» may dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.M.Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor.

M.X.Hakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosli, onomastika, xususan, toponimlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish muhim masalalardan biriga aylanmoqda. Yevropaning eng mashhur tilshunoslari til sathlarini o'rganishda ularning biri ahamiyat jihatidan ikkinchisidan aslo kam emasligini ta'kidlaganlar. Shuning uchun ham til nazariyasi asoschisi V.Gumboldt «Tildagi formalar alohida-alohida yashamaydi, balki butunning bo'lagi sifatida hayot kechiradi», – degan edi. Uning fikricha, tilning har bir birligi turli tolalari bilan chambarchas bog'lanib ketgan ulkan matoga o'xshaydi¹. Dunyo tilshunosligida tilga uning foydalanuvchisi, ijodkori, ya'ni inson omilini hisobga olgan holda tadqiqotlar olib borish ommalashib bormoqda. Til ilmining umumnazariy masalalari, tadqiq aspektlari, usullari, o'zbek tili lug'at tarkibining shakllanishi va rivojlanishi, o'zgarishi va boyish xususiyatlari, xususan, onomastik birliklarni muayyan tizim sifatida tavsiflash hamda kognitiv xususiyatlarini ochib berish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

O'zbek tili leksikologiyasining ana shunday dolzarb, tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolaridan biri toponimlarning leksik-semantik, etimologik xususiyatlari, ularning nutqda yuzaga kelish omillari, sabablari hamda lug'aviy-ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganish hamda mavzuiy jihatdan tasnif qilish hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida professor E.Begmatov², A.Hojiyev³ kabi olimlar bu sohada tayanch ma'lumotlarni berib o'tgan bo'lsa, keyingi olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning muayyan jihatlarni tadqiq etish bilan chegaralangan. Biroq, mazkur sohada o'rganilishi zarur bo'lgan talay masalalar mavjud. Ayniqsa, tilimizga bo'lgan yangicha yondashuvlar, milliy ong va tafakkurni shakllantirishda fanning eng ilg'or yutuqlarini ko'rsatadigan yirik monografik tadqiqotlar yaratilmagan. Bularning barchasi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Binobarin, «...Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi»⁴ belgilagan maqsadimiz to'g'ri ekanidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida»⁵gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»⁶gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-

¹ Березин Ф.М. История лингвистических учений. М., Высшая школа, 1986, стр.47.

² Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. № 4. – Б.43-49.

³ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002. –164 б.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 йил, 22 декабрдаги нутқи. / “Халқ сўзи”. – 2017йил, 23декабрь. №258

⁵ <https://lex.uz/docs/3213410>

⁶ <https://lex.uz/docs/3117025?ONDATE=18.02.2017%2000>

son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida⁷»gi qarori, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida⁸»gi, 2020-yil 8-avgustdagi PQ-4798-son «2020-2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida⁹»gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6884-son «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida¹⁰»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi¹¹» to'g'risidagi farmonlari, «2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi¹²», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 78-F-sonli farmoyishi¹³, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 6-martdagi 122-sonli buyrug'i¹⁴ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida va Markaziy Osiyoda toponimlar tadqiqiga oid dastlabki izlanishlar A.Vamberi, Jyul Tonnele¹⁵lar tomonidan amalga oshirilgan. Bu soha mustaqil yo'nalish sifatida XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan bo'lib, A.X.Vostokov, N.I.Nadejdin, V.V.Bartold, I.A.Shegren, M.A.Kastren, A.P.Dulzon, E.M.Murzayev, A.I.Popov, V.A.Nikonov, V.N.Toporov, A.K.Matveyev, Y.A.Karpenko, Y.M.Pospelov, A.V.Superanskaya¹⁶ kabi olimlarning izlanishlari sohaning nazariy asoslari yaratilishiga zamin bo'ldi.

⁷ <https://lex.uz/docs/3171590>

⁸ <https://lex.uz/docs/4561730>

⁹ <https://lex.uz/docs/-4938395?ONDATE=10.06.2022>

¹⁰ <https://lex.uz/docs/5058351>

¹¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5844800>

¹² https://nrm.uz/contentf?doc=637139_2020-

[2030yillardao'E2%80%98zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish koncepciyasi\(o'E2%80%98uz r prezidentining 20 10 2020 y pf-6084-son farmoniga 1-ilova\)&products=1 vse zakonodatelstvo uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=637139_2020-2030yillardao%E2%80%98zbek%20tilini%20rivojlantirish%20va%20til%20siyosatini%20takomillashtirish%20konceptsiyasi%20o%20uz%20r%20prezidentining%2020%2010%20yil%20farmoniga%201-ilova%20vse%20zakonodatelstvo%20uzbekistana)

¹³ <https://lex.uz/docs/350336415432426/posts/1099836867149040>

¹⁴ <https://lex.uz/docs/5319768>

¹⁵ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва, 1874. – 383 с.; Чабров Г. Из истории изучения Средней Азии (Описание Кокандского ханства Жюль Тоннелье, изданное в Париже в 1869 г.) // Известия Узбекистанского филиала географического общества. Т. IV. – Ташкент: Наука, 1962. – 190 с.

¹⁶ Надеждин Н.И. Опыт исторической географии русского мира. Библиотека для чтения. – 1837. – т.22, от.3. – 28 с.; Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Мысль. 1974. – 382 с.; Словарь народных географических терминов. – Москва: Мысль, 1984. – 653 с.; Топоров В.Н. Из области теоретической топонимологии // Вопросы языкознания. – 1962. № 6. – С. 9-12; Дульзон А.П. Этнолингвистическая дифференциация тюрков Сибири // Структура и ист. Тюркских языков – Москва, 1971. – С. 198-208; Матвеев А.К. Арёальные исследования и этимологизация субстратных топонимов // Пробл. Картограф. В

Qardosh xalqlar – qozoq va ozarbayjon tilshunosligida ham ushbu mavzuga oid ayrim tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, R.D.Sunchugashevning «История изучения топонимики Хакасии», А.Е.Yartibayevning «Состав и структура топонимов Карагандинской области», X.G.Aliyevning «Тюркские по происхождению этнооронимы Юго-Восточных районов Грузии» mavzusidagi ishlarini aytib o‘tish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida toponimlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish harakatlari XX asrning 60-yillarida boshlangan. Bunda tilshunos olimlar bilan bir qatorda, etnograflar, tarixchilar, arxeologlar umumiy jamoa bo‘lib tadqiqot olib borganligi e‘tiborga molik. Bu sohada eng yirik tadqiqot ishlari olib borgan H.Hasanov, T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do‘simov, B.O‘rinboyev, T.Rahmatov, L.Karimova, T.Enazarov, N.Oxunov, N.Uluqov, S.Nayimov, A.Turobov, A.Otajonova, O.Begimov¹⁷ kabi olimlar nomini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Ularning izlanishlari natijasida mamlakatimiz hududidagi toponimlar to‘plangan, tasniflangan, kelib chiqishi va ma’nolari muayyan darajada izohlangan.

Biroq Sharqiy O‘zbekistonda joylashgan Farg‘ona viloyati So‘x tumani toponimlari e‘tibordan chetda qolgan va hozirga qadar mustaqil tadqiqot obyekti sifatida maxsus o‘rganilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining monografik tarzda o‘rganilishini taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O‘zbek tili leksikologiyasining dolzarb masalalari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi So‘x tumani toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari tadqiqini monografik tarzda maxsus o‘rganishdan iborat.

языкозн. И этнографии. – Ленинград, 1971. – С. 69-70; Никонов В.А. Введение в топонимику. – Москва, 2011. – 184 с.; Карпенко Ю.А. Топонимика Буковины. – Киев: Изд-во КГУ, 1973. – 242 с.; Поспелов Е.М. Топонимика в школьной географии. – Москва: Просвещение, 1981. – 144 с.; Суперанская А.В. Что такой топонимика? – Москва: Наука, 1985. – 182 с.

¹⁷ Хасанов Х. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 80 б.; Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореферат дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 24 с.; Qorayev S. Топонимика. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – 320 b.; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.; Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 1973. – 31 с.; Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – 96 б.; Эназаров Т. Шахрисабз худуди жой номларининг тарихий-киёсий тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1993. – 163 б.; Бегимов О.Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 216 б.; Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008 – 192 б.; Туробов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 21 б.; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 6 б.; Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашма катлами: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 27 б.

Tadqiqotning vazifalari:

So‘x tumani toponimlarini yig‘ish, tasniflash va ularning ilmiy tahlili va tavsifini berish;

hududdagi toponimlarning leksik-semantik o‘ziga xoslik jihatlarini aniqlash; toponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish orqali shu hududda yashovchi xalqlar madaniyati va kognitologiyasiga doir belgilarni yoritish;

toponimlarning o‘ziga xos mental tabiati va sotsial lisoniy xususiyatlarini ochib berish;

hudud toponimlarining etimologiyasi, strukturasi va nomlanish bilan bog‘liq asoslarni belgilash

So‘x tumani toponimik xaritasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg‘ona viloyati So‘x tumani toponimlari tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning predmetini Farg‘ona viloyati So‘x tumani toponimlarining leksik-semantik hamda kognitiv xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash va tasniflash, statistik va etimologik tahlil, shuningdek, qiyosiy-tarixiy tadqiq hamda kognitiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

So‘x tumani toponimiyasining tarixiy manba, hujjat hamda statistik ma'lumotnomalar asosida hudud toponimlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari davriy jihatdan asoslanib, eng qadimiy davrda yaratilgan toponimlar lug‘aviy qatlamida, asosan, sug‘d tili, arablar istilosidan keyin arab, fors-tojik, o‘zbek, sho‘rolar davrida esa rus tilining ta'siri kuchli bo‘lganligi aniqlangan;

So‘x tumani toponimlarining shakllanishi va taraqqiyoti uchta katta davrga ajratilgan: 1) hududda fors-tojikcha, o‘zbekcha, arabcha hamda sug‘d tiliga oid qadimgi nomlar: *Zirak, Quvvi, Kunjok, So‘x, Xonaqoh, Xokkanak, Obishir, Surati*; 2) sho‘rolar davrida rus tili va siyosatining kuchli ta'siri bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan nomlar: *Engels (Chorko‘cha), Jdanov (G‘aznaviy), Karl Marks (Qal‘a), Kuybishev (Qal‘acha), Leningrad (Sohibkor), Lenin (Guliston), Kalinin (Lenbur)*; 3) mustaqillik bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan nomlar: *Istiqlol, Xumo, Qahramon, Navobod, Sarhadchi, Ziyo, Buston, Matonat, Namuna, Anorbog‘, Gulirayhon, Haqiqat, Sebzor, Shitobon, Obida, Bog‘bon, Zamin, Zakovat*.

antropotoponimlar, tarixiy voqealar hamda diniy motivli toponimlar ijtimoiy-siyosiy terminlar asosida yuzaga kelgan va kasb-hunar nomlari bilan atalgan toponimlar o‘zgarishi hamda nomlanishining ijtimoiy, siyosiy, lisoniy jihatlarini har bir davrning tarixiy, iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy sharoitlariga asoslangan holda dalillangan;

toponimlar tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma tarkibli, so‘z birikmasi va izofiy birikma modelidagi hamda xalqning mifologik va diniy qarashlarini aks ettirgan mifologemalar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

So‘x tumani toponimlarini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar o‘zbek toponimikasi bo‘yicha muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishda, mavjud o‘quv adabiyotlarini mukammallashtirishda, o‘quv qo‘llanma, majmualar yaratishda hamda lug‘atlar tuzishda xizmat qilishi asoslangan;

til tarixi, leksikologiya, etimologiya, dialektologiya, manbashunoslik sohalari uchun muhim nazariy qarashlarning shakllanishiga asos bo‘lishi dalillangan;

obyektlarning nomlanish tamoyili va motivlari tahlil etilib, nominatsiya jarayoniga asos qilib olingan jihatlar ijtimoiy-siyosiy va milliy-madaniy nuqtai nazardan ochib berilgan hamda lingvokulturologiya, sotsiolingvistika sohasida hozirda to‘laligicha o‘z yechimini topmagan toponimlarning mental tabiati, ularning yuzaga kelishida ijtimoiy-siyosiy omillarning o‘rni kabi masalalarga aniqlik kiritilishi asoslangan;

So‘x tumani Farg‘ona viloyatining eksklav hududi sanalganligi bois bu hudud toponimlari ustida olib borilgan mazkur tadqiqot ishi lingvistik ahamiyati bilan birga chuqur siyosiy hamda madaniy-tarixiy qimmatga ham ega ekanligi dalillangan;

Dala amaliyoti davomida to‘plangan materiallar asosida onomastik tadqiqot tamoyillari va usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilishi, xulosalarning qat‘iyligi, toponimlar tahliliga diaxron va sinxron aspektda yondashilganligi hamda ularni qiyosiy-tarixiy jihatdan tadqiq etish tarixiy manba, hujjatlar, shuningdek, statistik ma‘lumotnomalarga tayanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tili toponimikasi muayyan ilmiy qarashlar bilan yanada boyitilishi, tilshunoslikning etimologiya, dialektologiya, til tarixi, sotsiolingvistika sohalari hamda manbashunoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili), tarix va geografiya o‘qitish metodikasi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari hamda lingvistika (o‘zbek tili), tarix va geografiya magistratura mutaxassisliklarida tanlanma fan sifatida o‘qitilishida, bundan tashqari, olingan natija va xulosalardan o‘zbek toponimikasiga oid darslik, qo‘llanmalar yaratilishida, «O‘zbekiston Respublikasi toponimlarining izohli lug‘ati», «Farg‘ona vodiysi toponimlarining etimologik lug‘ati», «Farg‘ona viloyati toponimlarining ensklopedik lug‘ati», «So‘x tumani toponimik xaritasi» kabilarni tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farg‘ona viloyati So‘x tumani hududidagi toponimlarni leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar hamda xulosalar asosida:

So‘x tumani toponimiyasining tarixiy manba, hujjat hamda statistik ma‘lumotnomalar asosida hudud toponimlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari davriy jihatdan asoslanib, eng qadimiy davrda yaratilgan toponimlar

lugʻaviy qatlamida, asosan, sugʻd tili, arablar istilosidan keyin arab, fors-tojik, oʻzbek, qisman moʻgʻul, shoʻrolar davrida esa rus tilining taʼsiri kuchli boʻlganligiga oid ilmiy va anʻanaviy asoslangani boʻyicha bildirilgan xulosalardan «Форс-тожикча ўзлашмалар» nomli oʻquv lugʻatini tayyorlashda unumli foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrugʻiga asosan 500/t-005-raqamli ruxsatnoma). Natijada oʻquv lugʻatining ilmiy-amaliy jihatdan yanada boyishiga erishilgan.

Soʻx tumani toponimlarining shakllanishi va taraqqiyoti uchta katta davrga ajratilgan: 1) hududda fors-tojikcha, oʻzbekcha, arabcha hamda sugʻd tiliga oid qadimgi nomlar: *Zirak, Quvvi, Kunjok, Soʻx, Xonaqoh, Xokkanak, Obishir, Surat*; 2) shoʻrolar davrida rus tili va siyosatining kuchli taʼsiri bilan bogʻliq holda yuzaga kelgan nomlar: *Engels (Chorkoʻcha), Jdanov (Gʻaznaviy), Karl Marks (Qalʼa), Kuybishev (Qalʼacha), Leningrad (Sohibkor), Lenin (Guliston), Kalinin (Lenbur)*; 3) mustaqillik bilan bogʻliq holda yuzaga kelgan nomlar: *Istiqlol, Xumo, Qahramon, Navobod, Sarhadchi, Ziyo, Buston, Matonat, Namuna, Anorbogʻ, Gulirayhon, Haqiqat, Sebzor, Shitobon, Obida, Bogʻbon, Zamin, Zakovat* kabi hudud toponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlariga oid ilmiy qarashlardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «Oʻzbekiston» teleradiokanalining «Bedorlik», «Ijod zavqi», «Taʼlim va taraqqiyot», «Millat va maʼnaviyat» eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «Oʻzbekiston» teleradiokanali» davlat muassasasining 2022-yil 28-sentyabrdagi 02-04-1600-son maʼlumotnomasi). Jumladan, ushbu koʻrsatuvlar uchun tayyorlangan ssenariy materiallari tadqiqotchi tomonidan tavsiya etilgan misollar bilan boyitildi. Natijada radiotinglovchilar uchun ushbu eshittirishlarning taʼsirchanligi, rang-barangligi ortgan, mazmunan mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy boʻlishi taʼminlangan;

antropotoponimlar, tarixiy voqealar hamda diniy motivli toponimlar ijtimoiy-siyosiy terminlar asosida yuzaga kelgan va kasb-hunar nomlari bilan atalgan toponimlar oʻzgarishi hamda nomlanishining ijtimoiy, siyosiy, lisoniy jihatlari har bir davrning tarixiy, iqtisodiy, madaniy, mafkuraviy sharoitlariga asoslangan holda dalillanganiga oid xulosalardan «Matn tilshunosligi» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-son buyrugʻiga asosan 237-317-raqamli ruxsatnoma). Natijada oʻzbek tilida funksional soʻz yasalishi xususiyatlarini tahlil qilishda toponimiyadagi muayyan leksik birliklarning shakliy va maʼnaviy munosabatlari sharhi boyitilishiga erishilgan hamda toponimlar boʻyicha berilgan ilmiy maʼlumotlar darslikning ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashishi uchun manba boʻlib xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda maʼruza shaklida bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan boʻlib, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalar ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Toponimlarning leksik-semantik tasnifi, uning ilmiy-nazariy hamda amaliy masalalari**» deb nomlangan birinchi bobi ikki faslni o'z ichiga oladi. Bobning birinchi fasli «**Toponimlar masalasining leksik-semantik jihatdan o'rganilishi**» deb nomlangan. Onomastika tilshunoslikning juda keng tarmog'i bo'lib, toponimlar uning tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Bu soha juda ko'p ichki tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Masalan, toponimikada toponimlar va ularning yuzaga kelish qonuniyatlari o'rganiladi. «*Toponim*» so'zi asli yunoncha *topos* – «joy» va *onoma* – «atoqli ot» so'zlaridan olingan bo'lib, u yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan barcha tabiiy-geografik va sun'iy obyektlarning atoqli otidir¹⁸, deb izohlanadi.

Toponimlar masalasi azaldan ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib, bu birliklar o'zida xalqlar tarixi, madaniyati va tafakkuri hamda o'zligini namoyon etadi. Aynan katta ijtimoiy ahamiyatga molikligi sababli ham, mazkur masalalar fanda nafaqat tilshunoslar, balki adabiyotshunoslar, etnograflar, tarixchilar, arxeologlar, siyosatshunoslar, madaniyatshunoslar, harbiylar va hatto juda tor mutaxassislik egalari bo'lgan xazina izlovchilar uchun ham qiziqarli mavzular mundarijasini taqdim etib kelgan. Xususan, tilshunoslik sohasida toponimlar eng qadimgi yozma manbalarda tilga olinadi. Bu manbalarda toponimlarning, asosan, onomastik xarakteri ahamiyatli bo'lib, ularni leksik-grammatik jihatdan tadqiq etish tilshunoslikning keyingi davrlarida boshlangan.

Toponimlarning lingvistik jihatdan o'rganilishi XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Jumladan, rus tilshunoslari V.A.Serebrennikov, A.P.Dulzon, E.M.Murzayev, A.I.Popov, V.A.Nikonov, V.N.Toporov, A.K.Matveyev, Y.A.Karpenko, V.A.Juchkevich, Y.M.Pospelov, A.V.Superanskaya¹⁹lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sohaning ilk nazariy asoslari shakllangan.

¹⁸ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 76-77.

¹⁹ Серебренников Т.А. О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания. – Москва, 1959. – №6; Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – Москва: Мысль, 1984; Топоров В.Н. Из области теоретической топономастики // Вопросы языкознания. – 1962. №6; Дульзон А.П. Этнолингвистическая дифференциация тюрков Сибири // Структура и ист. тюркских языков – Москва, 1971;

O'zbek tilshunosligida toponimlarni o'rganishning boshlanishi tom ma'noda XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib, o'zbek tilshunosligida yirik hajmdagi monografik tadqiqotlar maydonga keldi. Ularda xalqimizning boy tarixi bilan birga, toponimlarning lingvistik xususiyatlari ham muayyan darajada ochib berildi. Bu davr ilmiy jamoatchiligi qatorida H.Hasanov, T.Nafasov, S.Qorayev, Z.Do'simov, B.O'rinboyev, T.Rahmatov, L.Karimova, T.Enazarov, N.Oxunov, S.Nayimov, A.Turobov, A.Otajanova, O.Begimov²⁰ kabi tadqiqotchilarni eslatib o'tish mumkin. Yuqorida nomlari ta'kidlab o'tilgan olimlar o'z tadqiqotlarida O'zbekiston hududidagi turli tarixiy joylarning nomlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Onomastik birliklar, ular sirasiga kiruvchi toponimlar, oddiy nomlar emas, ular tarixdan «so'zlaydi». Bu holat fanda ko'p bor takrorlangan va tan olingan fikr bo'lganligi bois ham, mamlakatimizning nisbatan uzoq o'tmishga va boy tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lgan hududlaridagi toponimlar xususida olimlar ko'proq izlanishlar olib borganlar. Jumladan, o'zbek olimlaridan T.Rahmatov mamlakatimizning qadim tarixga ega bo'lgan Samarqand hududi toponimlari; X.Xolmo'minovning Boysun tumani mikrotoponimiyasi; O'.Oripovning nihoyatda boy va go'zal tabiiy manzaralarga ega Nurota tumani makro va mikrotoponimlari; A.Aslanovning Shofirkon tumani mikrotoponimiyasi; X.Bo'riyevaning Toshkent shahri tarixiy toponimiyasi bo'yicha; S.Bo'riyevning esa Urgut tumani mikrotoponimlari²¹ yuzasidan olib borgan tadqiqotlarini aytib o'tish mumkin.

Toponimlar bilan bog'liq quyidagi guruhlar farqlanadi: a) xoronimlar – ma'muriy hudud: mamlakat, davlat va viloyatlar nomlari; b) oykonimlar – aholi yashaydigan hudud: turarjoy, maskan nomlari; d) astionimlar – shahar nomlari; e) komonimlar – qishloq, ovul nomlari; f) oronimlar – tog', qir, adir, jar va tepaliklar nomi; g) agronimlar – dala va yer maydonlari nomlari; h) nekronimlar – muqaddas qadamjolar, mozor, maqbara va qabristonlar nomi; i) dromonimlar – yo'l nomlari; j) drimonimlar – daraxtzor, o'rmonzorlar nomlari; k) agionimlar – muqaddas deb hisoblanuvchi va mashhur shaxslarning atoqli otlari bilan

Матвеев А.К. Ареальные исследования и этимологизация субстратных топонимов // Проблемы картографирования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1971; Никонов В.А. Введение в топонимику. – Москва, 2011; Поспелов Е.М. Топонимика в школьной географии. – Москва: Просвещение, 1981; Суперанская А.В. Что такое топонимика? – Москва: Наука, 1985; Общая теория имени собственного. – Москва, 1973.

²⁰ Тurobov A.M. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 21 б.; Отажoнoвa A. Хoрaзм этнoтoпoнимлaри вa улaрнинг лугавий асослaри: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 26 б.; Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашма қатлами: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 27 б.

²¹ Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 1973. – 31 с.; Холмунинов Х. Микропонимия Байсунского района и его окрестностей: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1993. – 24 с.; Оripов Ў. Нурoтa тумaни мaкpo вa микpoтoпoнимлaрининг лисоний таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 22 б.; Аслaнoв A.C. Шoфиркoн тумaни микpoтoпoнимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 26 б.; Бўриeвa X.A. Toшкeнт шaҳрининг тарихий топонимияси (XIX аср oхири – XX аср бошлaри): Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 25 б.; Бўриeв C.H. Ургут тумaни микpoтoпoнимлaрининг лексик-семантик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 22 б.

nomlanuvchi joy nomlari va boshqalar. Ko‘rinadiki, mazkur terminlarning shakllanishida g‘arb terminologiyasi dominantligi mavjuddir.

O‘zbek toponimiyasida etnotoponimik xarakterdagi toponimlar salmoqli o‘rin tutadi. Buning sababi tarixiy taraqqiyot davrlari bilan aloqador bo‘lib, qadimda qabila, urug‘ nomlarining mavjudligi va bu bevosita shu aholi yashaydigan hududlarning toponimlarga ham ko‘chirilishi tilimizda ular miqdorining ortishiga sabab bo‘lgan.

Ish Farg‘ona viloyati So‘x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘ziga xos tabiiy iqlim sharoiti, uzoq tarixi, bu hududda yashovchi aholi vakillari hamda siyosiy-hududiy chegaralanishiga ko‘ra, muayyan murakkablik va qiziqarli jihatlariga ega bo‘lgan mazkur tumanda 27 ta mahalla fuqarolar yig‘ini, 205 ta ko‘cha nomlari; tabiiy tuzilmasiga mos ravishda 27 ta tog‘, qir, tepalik, chuqqi, tizma, dovon nomlari (*oronimlar*); 45 ta mozor, qabriston va muqaddas qadamjolar nomi (*nekronimlar*); 15 ta muqaddas deb hisoblanuvchi va mashhur shaxslarning atoqli otlari bilan nomlanuvchi joy (*agionimlar*); shuningdek, daryo, sohil, soy, anhor va ariq nomlari mavjud.

Toponimlar bevosita tarix bilan aloqadordir. Tarix fani til materiallari asosida tarixiy voqealarni ilmiy asoslaydi, o‘z navbatida, til bosqichlari tarixiy voqealar bilan chambarchas bog‘liq ravishda evrilishlarga uchraydi.

Bobning ikkinchi fasli «**So‘x tumani toponimlarining lingvogeografik tavsifi, shakllanishi va takomili**» deb nomlanadi. So‘x tumani Farg‘ona viloyatining o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lgan ma‘muriy hududi sanaladi. N.Oxunov, J.Latipov, S.Gubayeva, Y.Ahmadaliyev, A.Ergashev, Y.Ne‘matova, G.Jo‘raboyeva²² va boshqa qator olimlarning tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysi toponimiyasining bir-birini to‘ldiruvchi turli jihatlarini o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tarix, madaniyat, davlat va jamiyat masalalarini ham qamrab oladi. Ayniqsa, uzoq tarixga ega hududlar Farg‘ona vodiysi, xususan, So‘x tumani toponimiyasini leksik-semantik jihatdan tahlil qilish fanga katta amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlar bera oladi.

So‘x tumani toponimlarining kelib chiqishi, shakllanishi va taraqqiyoti nuqtai nazaridan uchta katta davrni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular: 1) qadimgi nomlar; 2) sho‘rolar davri siyosati bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan nomlar; 3) mustaqillik bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan nomlar.

²² Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 56 б.; Топонимия Кокандской группы районов: Автореферат дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 23 с.; Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – 90 б.; Охунов Н., Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона: Фарғона, 2010. –128 б.; Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти топонимлари. – Фарғона, 2009. – 140 б.; Латипов Дж. Топонимия города Маргилана и его окрестностей (лингвистический анализ): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 26 с.; Губаева С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX в. – Ташкент: Фан, 1983. – 104 с.; Этнонимы в топонимии Ферганской долины: Автореф. дис. канд. истор. наук (Ин-т этнографии АН СССР). – Москва: 1973. – 20 с.; Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2012. – 135 б.; Неъматова Ю. Наманган вилояти ойконимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2018. – 147 б., Жўрабоева Г. Фарғона водийси топонимларининг қиёсий-тарихий ва антропоцентриқ тадқиқи: Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2021. – 206 б.

So‘x tumanidagi mavjud toponimlarni ushbu tasnif asosida tadqiq etib ko‘radigan bo‘lsak, quyidagicha guruhlarni kuzatish mumkin. Birinchi guruh tarkibiga *Zirak, Quvvi, Kunjok, So‘x, Xonaqoh, Xokkanak, Obishir, Surat, Sarbast, Hamal, Simodon, Xidirmon, Kasminon, Nushtang, Buzurgon, Bujvotkon, Gurvonon, Zangat, Bog‘oshim, Kuhsor, Kamar, Gavjum, Lenbur, G‘aznob, Og‘utak, Kalidon, Qarichtob, Umbara, Ganjiravon* kabi toponimlarni kiritish mumkin. Bu guruhga kiruvchi toponimlarda fors-tojik tilining faol ta'siri seziladi. Bundan tashqari, qadimgi so‘g‘diy, arabiy va asoslari qorishib ketgan nomlar ham mazkur davr tarkibiga kiradi. Masalan, «-i» so‘z yasovchisi yordamida sifat hosil qilinishi va uning joy nomi sifatida qo‘llanilishi bu guruh leksemalari uchun xosdir. Misol uchun, *Balchiqi, Chuquri* kabi. Shu bilan birga aynan «-i» affiksi yordamida shakllangan ot-leksemalar ham ushbu guruh uchun xarakterli. Misol uchun, *Quvvi, Surat* kabi. Mazkur affiks fors-tojik tilida nihoyatda faol bo‘lgan «-i» so‘z yasovchisining keng imkoniyatlarini ko‘rsatish bilan birga toponimlar yasashida tub joy aholisining tojik tilida so‘zlashuvchilardan tarkib topganligiga ham ishora qiladi.

Ikkinchi guruh tarkibi *Engels (Chorko‘cha), Jdanov (G‘aznaviy), Karl Marks (Qal‘a), Kuybishev (Qal‘acha), Leningrad (Sohibkor), Lenin (Guliston), Kalinin (Lenbur), Drujba (Do‘stlik), Iskra (Gulxan), Qahramon, Sportchi, Suyunchi, Obod, Iftixor, Guliston, Yoshlik, Iqbol, Mevazor, Yoshlar, Lochin, Navbahor* kabilardan iborat bo‘lib, ular, asosan, sho‘rolar davrida qo‘yilgan. Bu toponimlarning ayrimlari bugungi kunda ham qo‘llanilib kelmoqda. Bu davrda barpo etilgan kolxoz va ularning keyinchalik sovxoz shaklida faoliyat yuritishi hamda ularga qo‘yilgan nomlar davr siyosati va qarashlarini o‘zida ifoda etgan. Ba‘zan esa bu nomlarning mazmuniga siyosat bilan bog‘liq aldov va yolg‘onlarni ham singdirilganini ko‘rish mumkin. Masalan, So‘x tumani hududida barpo etilgan «Ozod» jamoa xo‘jaligi nomini bunga dalil qilish mumkin. O‘z davrida insonlarga *ozodlik, hurlik* va‘da qilgan va puch va‘dalar ortida odamlarni mute‘lik qobig‘iga o‘ragan sho‘rolar hukumati siyosatida bu kabi nomlar ko‘p uchraydi. Bu nom sho‘rolar davlati parchalanib ketganidan so‘ng ham saqlanib qoldi, ammo uning ijtimoiy mazmuni va ichki ma‘nolari tubdan o‘zgardi. Toponim sifatida tanlangan nom tom ma‘noda o‘z ma‘nosiga endigina yetishganday bo‘ldi. Istiqlol tufayli So‘x tumanidagi ayrim toponimlar o‘zgardi, ayrimlari esa shu zaylda saqlanib qoldi.

Uchinchi guruh toponimlari bevosita Vatanimiz mustaqilligi harakatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning shakllanishi va qo‘llanilishida istiqlol va mustaqillik mafkurasining siyosiy ta'siri seziladi. Bunday nomlar qatoriga So‘x tumanidagi *Istiqlol, Mustaqillik, Xumo, Qahramon, Navobod, Sarhadchi, Ziyo, Buston, Matonat, Namuna, Anorbog‘, Gulirayhon, Haqiqat, Sebzor, Shitobon, Obida, Bog‘bon, Zamin, Zakovat, Shodlik, Sohil, Ishbilarmon, Mardlar, Omuzgor, Baxt, Baxtli, Mehr, Adolat, Ustoz, Ma‘naviyat, Ibrat, Mehribon, Sabohat, Oqibat, Hamkor, Sportchi, Suyunchi, Obod, Iftixor, Chegarachi, Guliston, Yoshlik, Do‘stlik, Iqbol, Ahil, Sardor, Rohat, Mevazor, Yoshlar, Lochin, Jarayon, Gulxan, Navbahor, Bunyodkor, Kamolot, Ma‘rifatgoh, Tabobat, Farog‘at, Ehtiom,*

Vatanparvar, Gulzor, Havaskor, Chorvador, Sihatgoh, Javonon, Jasurlar, Shifokor, Deputat, Yangiobod, Binokor, Sohibkor kabi ko‘cha va mahalla nomlarini lisoniy dalil sifatida keltirish mumkin.

Ishning ikkinchi bobi «**So‘x tumani toponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari tahlili**» deb nomlanib, besh faslni o‘z ichiga oladi. Bobning birinchi faslida So‘x tumani hududidagi toponimlar struktural jihatdan o‘rganilib, bu fasl «Sodda va qo‘shma tarkibli toponimlar» deb nomlangan.

Toponimlarning morfologik xususiyatlari tadqiq etilgan tilshunoslikka oid tadqiqotlarda soha mutaxassislarining ayni masala bo‘yicha turli yondashuvlarini ko‘rish mumkin.

So‘x tumanining tarixiy-etnik xususiyatlari bu hududda qo‘llaniluvchi toponimlarda aks etadi. Bu belgilar toponimlarning struktural-semantik xususiyatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. So‘x tumani toponimlarida tabiiy landshaft bilan aloqador tarzda *soy, suv (ob), tog‘, adir* so‘zlari ishtirokidagi toponimlar boshqa hududlarga nisbatan ko‘p uchraydi.

Nominativ funktsiya bajaruvchi til birliklari struktural jihatdan, asosan, sodda, qo‘shma, juft va takror holida uchraydi. So‘x tumani hududidagi toponimlarning struktural belgilariga ko‘ra tasniflaganimizda esa sodda tarkibli, qo‘shma tarkibli va birikma holatidagi toponimlarga ajratishni lozim topdik. Juft va takror so‘z holatidagi toponimlar, deyarli, uchramadi.

Tasniflar ichki bo‘linishlarga ajratilgan bo‘lib, ko‘p hollarda, bu ularning semantik tabiati bilan bog‘liq. Masalan, leksik yo‘l bilan yasalgan sodda oykonimlarning o‘zi ham bir necha turlarga bo‘linadi: 1) jo‘g‘rofik va ijtimoiy-siyosiy terminlardan iborat oykonimlar; 2) o‘zbek urug‘-aymoqlarining va O‘zbekistonda yashagan boshqa el va elatlarning nomlaridan kelib chiqqan oykonimlar; 3) kishi ism-familiyalaridan kelib chiqqan oykonimlar; 4) o‘simlik va hayvon nomlaridan yasalgan oykonimlar²³. Tasnifdan ko‘rinadiki, bu jihatlar nomlarning semantik tabiati yoki kelib chiqish manbasi bilan bog‘liq.

So‘x tumani hududidagi sodda tarkibli toponimlar morfologik asosiga ko‘ra tasnif qilinib, ot turkumiga xos sodda toponimlar, sifat turkumiga xos sodda toponimlar tarzida tasniflangan.

Bu o‘rinda tasnif o‘zbek tili semantikasi va so‘z yasalishi qoidalari asosida berildi. Agar so‘zlarning etimologik xususiyati va fors-tojik tilida anglatgan ma‘nosi hisobga olinadigan bo‘lsa, chalkashliklar va turfa xilliklar yuzaga kelishi tabiiy hol. Shu sababdan ham *Obambor* (*suv* va *ombor* so‘zlari qo‘shilishi) yoki *Navobod* (*nav* – fors-tojik tilida «*yangi*» degan ma‘noni anglatishiga ko‘ra) so‘z-shakllari sodda so‘z sifatida tasniflandi.

Yasama asosli sodda toponimlarni yasovchi qo‘shimchani xarakteriga ko‘ra tahlil qilamiz. Bunda So‘x tumani yasama asosli toponimlari kesimida tahlillarni olib bormoqchimiz. Tabiiy ravishda joy oti yasovchi *-lik* qo‘shimchasi yordamida yasalgan: *Adirlik, Soylik, Jarlik, Mustaqillik, Shodlik, Yoshlik, Do‘stlik, Saxiylik, Obodlik*; *-zor* qo‘shimchasi yordamida shakllangan: *Olmazor, Sebzor, Gulzor*,

²³ Қораев С. Кўрсатилган мақола. – Б. 41-42.

Mevazor, Terakzor; -iston qo‘shimchasi yordamida yasalgan: *Bog‘iston, Guliston*; -goh qo‘shimchasi yordamida yasalgan: *Sihatgoh, Ma‘rifatgoh*; -obod qo‘shimchasi yordamida yasalgan: *Gulobod, Navobod*; -kor qo‘shimchasi yordamida hosil bo‘lgan: *Hamkor, Havaskor, Shifokor, Sholikor*; -chi qo‘shimchasi yordamida yuzaga kelgan: *Sarhadchi, Suyunchi, Chegarachi, Temirchi*; -dor qo‘shimchasi yordamida reallashgan: *Chorvador, Zarbdor*; bundan tashqari -parvar (*Vatanparvar*), -bon (*Bog‘bon*), ham- old qo‘shimchasi yordamida yasalgan (*Hamroh*) shakllar uchradi.

So‘x tumani hududida mavjud qo‘shma toponimlar ikki qismdan tarkib topgan. Ular orasida uch yoki to‘rt qismdan iborat shakllar uchramaydi. Bu hududda qo‘shma so‘z holatidagi toponimlarning asosan quyidagi shakllari mavjud:

1. Ot + ot qolipli toponimlar. Mazkur qolipli qo‘shma so‘zlar toponimlar tarkibida ko‘p uchraydi: *Tutqator, Sug‘ment, Anorbog‘, Buloqboshi, Xirmontepa, Gulbog‘, Soybo‘yi, Seldaha, Selxona, Mavji daryo, Objuvoz* kabi toponimlarni mazkur guruhga kiritish mumkin.

2. Sifat + ot qolipida yasalgan toponimlar. So‘x tumanidagi *Qo‘tirqishloq, Chaltoqon, Balchiqi, Zarmiyon, Navobod, Navqiron, Buzurgon, Safedkon* toponimlari sifat+ot qolipida shakllangan.

3. Son + ot qolipida shakllangan toponimlar. Ushbu modelda yasalgan toponimlar ham aniqlovchi + aniqlanmish munosabatida bo‘lib, ular tarkibida asosan *uch, to‘rt, besh, olti, yetti, ming* kabi sonlar qatnashadi. Xususan, So‘x tumani toponimlarida fors-tojik tilidan olingan *yak, du, se* hamda *chor* miqdor sonlari ishtirokidagi toponimlarni uchratish mumkin. Masalan, *Sebeda, Chorbog‘, Zardoliyak, Yakkazardoli, Chordara, Chorko‘cha* kabi.

4. Ot + sifat qolipida reallashgan toponimlar. O‘zbekiston, jumladan, Farg‘ona vodiysi, xususan So‘x tumani toponimiyasida ot + sifat, ya‘ni ot + obod formanti modelidagi toponimlar ko‘p tarqalgan: *Sharqobod, Gulobod, Sufiobod, Mulloobod, Haydarobod*.

5. Ot + fe‘l qolipidagi toponimlar. Mazkur qolipda yasalgan toponimlar oz bo‘lsa-da, uchraydi. So‘x tumani hududidan *Ishbilarmon, Omuzgor, Shifokor, Xokkanak, Sholikor, Binokor, Mehnatkash* toponimlarini bunga dalil qilish mumkin.

2.2. So‘z birikmasi va izofiy birikma modelidagi toponimlar

Toponimlar sifatida qo‘llaniluvchi izofiy birliklarning quyidagi turlari farqlanadi:

a) **-i, -yi** ko‘rsatkichlari mavjud va izofali modelda yasalganligi aniq ko‘rinib turadigan *Adiri Bolo, Mavji daryo, Xoki oshton, Shaxi kurula, Sari kanda, Sari dasht, Sari baroz, Sari bozorcha, Mahallai bolo, Mahallai poyon, Gulirayhon, Tagimazor, Tagi shuxcha, Tagi nav, Hoyiti nav, Havzi nav, Oinai sangin, Hoyiti sangin* kabi oykonimlar tadqiq etilayotgan hudud toponimiyasi tarkibida mavjud.

Biroq «**Tagob**» < *Tagi-ob*, «**Obg‘ul**» < *Obi-gul*, «**Kalidon**» < *Koni-don*, «**Mohtobon**» < *Mohi-tobon*, «**Shohmardon**» < *Shohi-mardon*, «**Obshir**» < *Obi-*

shir, «*Gulbog'*» < *Guli-bog'*, «*Qarichtob*» < *qa'ri*-(cht)-*ob* kabi toponimlar ham dastlabki davrlarda *-i*, *-yi* ko'rsatkichlari bilan shakllangan izofa modelidagi toponimlar, keyinchalik talaffuz qulayligiga erishish maqsadida tarkibidagi ko'rsatkichlar tushirib qoldirilgan;

b) *-i*, *-yi* ko'rsatkichlari tushirib qoldirilgan va izofali modelda yasalganligi deyarli sezilmaydigan toponimlar. Ularning tarkibi shunday o'zgarishlarga uchraganligi bois ham hozirda aksariyatiga sodda tarkibli toponim sifatida qaraladi: *Devayron* < *Dehai vayron*, *Demursad* < *Dehai Mirsaid* kabilar.

So'x tumani toponimiyasida birikma holatidagi toponimlar ham kattagina qismni tashkil etadi. Bunda fors-tojik tiliga xos birikmalar ahamiyatli bo'lib, ular doirasida izofiy birikmalar alohida o'rinni egallaydi. So'x tumani hududida so'z birikmasi holatida qo'llaniluvchi toponimlarga *Zarmiyon*, *Bo'ston*, *Kunjok*, *Bujay*, *Sarbast*, *Kasminon*, *Gurvonon* kabilarni misol qilish mumkin.

Bobning 2.3-fasli «So'x tumani toponimiyasining semantik guruhlari» deb nomlanadi.

Toponimlar paydo bo'lish asosiga ko'ra dastlab ikkita katta guruhga ajratiladi:

1) geografik obyektlarning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar;

2) jamiyat rivojining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-g'oyaviy holatlari, xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan nomlar.

I. Antropotoponimlarning vujudga kelishi ham jamiyatdagi ma'lum o'zgarish va qonuniyatlar bilan aloqador sanalib, har bir davrning o'ziga xos bu guruhga oid nomlar qatlami mavjud. So'x tumani antropotoponimlarini quyidagicha tasniflash mumkin: Shaxs otlari bilan bog'liq *Xo'jai Kalon*, *Xo'jai Kobo'dpo'sh*, *Xo'jai Tush*, *Xo'jai Murodbaxsh*, *Xo'jai Ro'shnoi*, *Xo'jai Xor*, *Xo'jai Abulqosim*, *Xo'jai Orifi Mohi Tobon* kabi toponimlar diniy ulamolar, asosan, islom dini peshvolari nomlari, shu bilan birga xalq qahramonlari nomlaridan vujudga kelgan *Tumaris*, mumtoz adabiyot va ma'naviyat namoyandalari *Bobur*, *Sheroziy*, *G'aznaviy*, chegara hududi xarakteridan kelib chiqib *Chegarachi*, *Sarhadchi*, *Qahramon*, *Jasurlar*, *Vatanparvar* kabi toponimlar, aholining mehnat va faoliyatini nazarda tutgan *Usto*, *Temirchi*, *Havaskor*, *Chorvador*, *Shifokor*, *Sholikor*, *Bog'bon* toponimlari uchraydi.

II. O'simlik nomlari bilan atalgan fitotoponimlar. Qo'qon xonligi davrida vujudga kelgan fitotoponimlarning aksariyati *yulg'un*, *yantoq*, *g'umay*, *jingil*, *qamish*, *turang'i*, *tol*, *chinor*, *tut*, *terak* singari yovvoyi o'simliklar va daraxt nomlarini anglatuvchi birliklar bilan yasalgan. Mustaqillik davrida yaratilgan fitotoponimlar tarkibini xalqning dehqonchilik va bog'dorchilik faoliyati bilan bog'liq holdagi *anjir*, *anor*, *uzum*, *olma*, *o'rik*, *shaftoli*, *bodom* kabi madaniy o'simlik nomlari hamda *gul*, *lola*, *rayhon*, *boychechak* singari *gul* bilan bog'liq nomlar tashkil qiladi: *Anorbog'*, *Olmazor*, *Sebzor*, *Gulbog'*, *Guliston*, *Gulirayhon*, *Gulobod*, *Gulzor*, *Tariq*, *Binafsha*, *Mevazor* kabilar.

III. Ijtimoiy-siyosiy terminlar bilan atalgan toponimlar. Ayrim mutaxassislar tomonidan «sotstoponimlar»²⁴ termini ostida yuritiladigan bu turdagi toponimlar muayyan davrning ijtimoiy hayoti va mafkurasi bilan bogʻliq holda yuzaga keladi. Ushbu paradigмага birlashuvchi joy nomlarini ham 3 ta tarixiy davr toponimiyasi misolida tahlil etish mumkin:

1. Qoʻqon xonligi davriga xos ijtimoiy-siyosiy terminlar asosida yuzaga kelgan toponimlar. Ular quyidagicha tasniflanadi:

a) ijtimoiy terminning oʻzi bilan shakllangan toponimlar: *Sardor, Shitobon, Qogʻazgar, Bogʻbon, Omuzgor, Ustoz, Temirchi, Chorvador, Sholikor;*

b) ijtimoiy termin + toponimik indikator asosida shakllangan toponimlar: *Haydarobod, Soʻfiobod, Xidirmon, Pidirgon, Buzurgon, Gurvonon* va boshqalar.

2. Shoʻrolar davriga xos ijtimoiy-siyosiy terminlar asosida yuzaga kelgan toponimlar. Bu turdagi toponimlar sobiq shoʻrolar davri uchun ham xos boʻlib, ular tarkibiga davrning siyosiy-mafkuraviy qarashlari, tuzumning shaxsiy-milliy manfaatlariga mos holda tanlanganligi bilan xarakterlanadi.

